

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30/01.2020.Ped26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

TODJIBAYEVA KOMILA SOBIT QIZI

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI INKLYUZIV-
TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI**

13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Pedagogical science**

Todjibayeva Komila Sobit qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga
tayyorlash mexanizmlari..... 3

Тоджибаева Комила Собит кизи

Механизмы подготовки будущих учителей начальных классов к
инклюзивно-воспитательной деятельности..... 23

Tojibayeva Komila Sobit kizi

Mechanisms for Preparing Future Primary School Teachers for Inclusive
Educational and Upbringing Activities 46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 50

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30/01.2020.Ped26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

TODJIBAYEVA KOMILA SOBIT QIZI

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI INKLYUZIV-
TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI**

13.00.02- Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped3459 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibraimov Xolboy

pedagogika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qodirova Feruza Usmanovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276--80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276--80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil “_____” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy

seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Rivojlangan mamlakatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Germaniya, Yaponiya davlatlarida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash zamonaviy tarbiyaning yetakchi strategiyalaridan biri bo'lib qolmoqda. 2000-yil Dakar shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon ta'limiy Forumida ko'plab davlatlar Salamanka deklaratsiyasi doirasida tenglik asosiy qadriyat sanalgan ta'lim shakli ya'ni inklyuziv ta'limni yaratish borasida kelishuvga erishdilar ("Ta'lim barcha uchun" Dakar harakatlar reja dasturi¹). Dakar harakatlar reja dasturi (Dakar Framework for Action) va Ta'limda ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millenium Development Goals on Education)da inklyuziv yo'naltirilgan ta'lim muassasalariga – "ta'limda diskriminatsiyalarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li, inklyuziv jamiyat qurish va ta'limni barcha uchun ochiq bo'lishini ta'minlash vositasidir"² deya ta'rif berilgan. Bu esa o'z navbatida inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash masalasiga yangi rakursdan qarash ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy mahorati va inklyuziv madaniyatini rivojlantirish, inklyuziv-tarbiyaviy salohiyatni shakllantirish metodikasini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim muassasalariga inklyuziv ta'lim muhitini kirib kelishi, yangi sharoit va muhitda ishlash zarurati o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishi, ularning funksional majburiyatlarining ko'payishi va professional malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqardi. Ushbu masala bo'yicha Buyuk Britaniyadagi Vestminster universiteti birinchi marta Tenglik, xilma-xillik va inklyuziya (Equality, Diversity and Inclusion - EDI) strategiyasini ishlab chiqqan. Strategiya nizomiga ko'ra talabalar va hamkasblar jamoasida turli noqonuniy kamsitishlarni bartaraf etishga intilish, tenglikni targ'ib qilish, va inklyuziv institutsional madaniyatni rivojlantirish unversitetning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Jahon miqyosida bu kabi tadqiqotlar hali hanuz davom etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati ta'limda tenglik, bag'rikenglik, hamkorlikni qo'llab quvvatlashga qaratilmoqda. Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi keng jamoatchilik tomonidan ijtimoiy jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston hukumati 2025 yilgacha mamlakat maktablarining kamida 51 foizini inklyuziv maktablarga aylantirishni maqsad qilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim

¹Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших коллективных обязательств. Всемирный форум по образованию. Дакар. 26–28 апреля 2000 г.— Париж: ЮНЕСКО,2000.— 77 с.14

² <https://www.un.org/millenniumgoals/>

ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim ta'minlanadi" ¹deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida" Qarori, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" Qarori, 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'qituvchilarni professional faoliyatga tayyorlash, ularda zaruriy kasbiy sifatlar va ko'nikmalarni shakllantirish B.Abdullaeva, R.H.Djuraev, X.I.Ibraimov, N.A.Muslimov, M.T.Mirsolieva, Sh.S.Sharipovlar; inklyuziv ta'limni tashkil etishning turli masalalari M.Yu.Ayupova, Z.N.Mamarajabova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldieva, R.Sh.Shomahmudova, D.B. Yakubjanova, D.S.Qaxarova, F.U.Qodirova, D.N.Qayumovalar; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy yetukligini ta'minlashning samarali texnologiyalari Z.R.Zohidova, M.M.Kuranova, Sh.U.Nurullaeva, R.G.Safarova, M.J.Saidovalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlaridan o'qituvchilarning professional kompetentligi A.L.Busigina, O.S.Borodina, A.A.Vorotnikova, E.S.Vrublevska; inklyuziv kompetentlik O.A.Kozireva, I.N.Xafizullina, M.S.Staroverova, A.V.Zaxarovalar; pedagogik-psixologik kompetentlik I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, L.M.Mitinalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijda R.Arends, T.But, M.César, M.Eynskou, H.Levin, L.Jackson, J.M.Taymans, A.Renzaglia, D.L.Ryndak, N.Santos Y.R.Shemesh, D.L.Voltz, L.L.Westlar inklyuziv ta'lim falsafasi va qadriyatlari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim jarayonida zarur qo'llab-quvvatlash tizimini tadqiq etishgan.

¹ <https://lex.uz/docs/6445147> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy ishlari rejasiga muvofiq FZ-2016-0909111822 “Darslik va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020-yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-ta‘limiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

talabalarni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirish;

talabalarni inklyuziv faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutidan jami 1067 nafar (527 nafar tajriba guruhida, 540 nafar nazorat guruhida) boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari qamrab olingan.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmuni, omillari, shakl, metod, vositalari hamda mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Analiz-sintez, pedagogik tahlil, suhbat, pedagogik kuzatish, anketa, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-ta‘limiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari qadriyatli munosabatlar hayotiylik va real vaziyatlar va kasbiy qiziqish motivlarini korreksion rivojlantiruvchi mikromuhitda bolaning psixofiziologik rivojlanishiga proportsional ravishda moslashtirish asosida aniqlangan;

talabalarni inklyuziv faoliyatga tayyorlash texnologiyasi multimediya va raqamli vositalarini o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga mos inklyuziv ta‘limiy traektoriyasini va shaxsiy rivojlanish harakatlarini mo‘tadil kutilma ehtiyojlariga mos prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv madaniyatli faoliyatga tayyorlash modeli o‘zini-o‘zi mustaqil boshqarish va qayta aloqaga kirishish mobilligini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan barobar imkoniyatlarga ega bo‘lishi asosida takomillashtirilgan;

talabalarni inklyuziv faoliyatga tayyorlash metodikasi ijtimoiy-hissiy faoliyatni o'quvchi refleksiyasini istiqbolli korreksiyalash mustaqil qaror qabul qilishda nostandart vaziyatlarni nogironlik kotegoryalarini kontekst xisobga olib multidistiplinar jamoa bilan hamkorlik qobiliyatini va salohiyatini reflektiv ob'ektiv baholash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan pedagogik modeli joriy etilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tamoyillari, mezonlari, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy ta'lim metodlari, ilmiy metodik tavsiyalar taklif etilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan mexanizmlari joriy etilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari, pedagog xodimlar va psixologlar uchun uchun "Inklyuziv ta'lim pedagogikasi" va "Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. Korreksion pedagogika asoslari" nomli uslubiy qo'llanmalar yaratilgan va ta'lim amaliyotiga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik yondashuv, uning maqsad va vazifalariga mos keladigan usullardan foydalanish, keng ko'lamlı eksperimental ishlar, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash muammosini ilmiy nazariyalarga asoslanib tadqiq etish lozimligini asoslab berilganligi, "inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat", "inklyuziv tarbiya", "inklyuziv madaniyat" tushunchalarining konseptual jihatlarini tahlil qilinganligi va mualliflik yondashuvi asosida ta'riflarning shakllantirilganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarining ochib berilganligi, mazkur jarayon tuzilmasi va tarkibiy asoslarining aniqlashtirilganligi, inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlanganligi, bu bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar tizimli tahlil etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning toksonomik parametrlari tizimlashtirilganligi, PBL-5 texnologiyasi bo'yicha muammoga, loyihaga, ishlab chiqarishga, jarayonga, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan, hamda "4K" texnologiyasi bo'yicha tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnikalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqilganligi, kreativ dars ishlanmalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni shakllantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-ta'limiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari qadriyatli munosabatlar hayotiylik va real vaziyatlar va kasbiy qiziqish motivlarini korreksion rivojlantiruvchi mikromuhitda bolaning psixofiziologik rivojlanishiga proporsional ravishda moslashtirish asosida aniqlashga oid takliflar 60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-oktyabrdagi 03/14-3051-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasini takomillashtirish, ta'lim mazmuni samaradorligini oshirishga erishilgan;

talabalarni inklyuziv faoliyatga tayyorlash texnologiyasi multimediya va raqamli vositalarini o'quvchilarning individual imkoniyatlariga mos inklyuziv ta'limiy traektoriyasini va shaxsiy rivojlanish harakatlarini mo'tadil kutilma ehtiyojlariga mos prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar pedagogika turkum fanlari mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-oktyabrdagi 03/14-3051-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni inklyuziv-pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish, inklyuziv ta'lim muhitida sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv madaniyatli faoliyatga tayyorlash modeli o'zini-o'zi mustaqil boshqarish va qayta aloqaga kirishish mobilligini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan barobar imkoniyatlarga ega bo'lishi asosida takomillashtirishga oid takliflar "Oila va Gender" ilmiy tadqiqot institutining JHBL-20-sonli "Oilada imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga oid ota-onalarning pedagogik savodxonliklarini oshirish" mavzusidagi amaliy loyiha natijalarini amaliyotga tatbiq etishda foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-oktyabrdagi 03/14-3051-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oila muhitida inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati yaratilgan;

talabalarni inklyuziv faoliyatga tayyorlash metodikasi ijtimoiy-hissiy faoliyatni o'quvchi refleksiyasini istiqbolli korreksiyalash mustaqil qaror qabul qilishda nostandart vaziyatlarni nogironlik kategoryalarini kontekst hisobga olib multidistsiplinar jamoa bilan hamkorlik qobiliyatini va salohiyatini reflektiv ob'ektiv baholash asosida takomillashtirishga oid takliflar O'zbekiston teleradiokompaniyasi O'zbekiston telekanalida e'fira uzatiluvchi "Kelajakka yo'l" hamda Mahalla telekanalining "Minbar" ko'rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-oktyabrdagi 03/14-3051-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ijtimoiy-ta'limiy mavzudagi tahliliy ko'rsatuvlar yangi g'oya va tendensiyalar bilan boyitilib, inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirishga hissa qo'shilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari

asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta, shu jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 121 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusi dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Mavzuning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy va ilmiy-pedagogik asoslari tizimlashtirilib, tadqiq etilayotgan muammoning bugungi kundagi mavjud holati tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir milliy va xorijiy tajribalar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan, mavjud muammolar va ularni hal etishda taklif va mulohazalar bayon etilgan.

Ilmiy-tadqiqot ishi davomida “Inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat”, “Inklyuziv madaniyat” tushunchalarining mazmun-mohiyati tadqiq etilib, shu asosda muammoning nazariy-metodologik yondashuvlari aniqlashtirilgan.

Inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat – bu alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni insonparvarlik tarbiyasi tamoyillari asosida, inklyuziv muhitda maqsadli ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq hatti-harakatlar majmuasidir. U tarbiyaning qadriyatli va ijtimoiy-madaniy paradigmalardan foydalanish yoki ularni uyg'unlashtirish orqali mazmunning o'zgaruvchanligiga ega bo'lib, yosh, jins, individual-shaxsiy va guruh ehtiyojlari hamda talablariga ko'ra inklyuziv tarbiya mazmunining turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi

Inklyuziv madaniyat – fuqarolik jamiyatining yuksak darajadagi belgisi bo'lib, jamiyatning barcha qatnashchilarini muttasil rivojlanishini rag'batlantiradigan, har bir insonning qadriyatlari qabul qilinadigan, xavfsizlik kafolatlanuvchi, bag'rikeng odamlar jamoasi mahsulidir.

“Inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat” tushunchasining talqinini bir necha yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin: inklyuzivlik samaradorligiga ta'sir etuvchi inklyuziv jarayon ishtirokchilari tomonidan o'zaro qabul qilingan va umumiy qadriyatlar, tushunchalar va bilimlardan iborat alohida kategoriya; inklyuziv qadriyatlarni, ishonchning o'ziga xos mikro muhitini ta'minlashga, har bir ishtirokchini jiddiy stress va psixologik shikastlanishdan himoya qilishga, subyektlarning bir-biriga nisbatan faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan umumiy madaniyatning bir qismi; subyektlar, ta'lim ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida o'zaro qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan jarayon. Inklyuziv-

tarbiyaviy faoliyat umuman olganda, ijtimoiy chetga chiqish yoki marginallashtirish epizodlarini boshdan kechirish xavfi yuqori bo'lgan bolalarga yordam berishda namoyon bo'ladi. Ushbu guruh tarkibida odatda barcha turdagi ozchiliklar, nogironlar yoki iqtisodiy resurslari kam oilalar a'zolari mavjud. Ya'ni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat faqat jismoniy, aqliy va sensor imkoniyati cheklangan bolalar bilan muvaffaqiyatli ishlash emas, balki, moddiy, madaniy, ijtimoiy kategoriya sifatida ham namoyon bo'ladi.

Inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat professional kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ham kasbiy faoliyatida (ATEB bolalarga ta'lim berish, tarbiya berish va rivojlantirish olish malakalarida); kasbiy-pedagogik muloqotida (ATEB bola va uning ota-onasi bilan ishlash, sog'lom bolalar va ularning ota-onasi bilan ishlash, jamoada mo'tadil, rivojlantiruvchi va do'stona muhitni yaratish olish malakalarida); mutaxassisning o'zligini namoyon etish olishidagi kompetentligida (inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik takt, pedagogik nazokat, refleksiya, empatiya, professionalizm) namoyon bo'luvchi jihat hisoblanadi.

Bobning ikkinchi paragrafida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirishning bugungi kundagi mavjud holati bayon etilgan. BMT tomonidan har yili aniqlanib kelinadigan inson taraqqiyoti (kamoloti) indeksi ko'rsatkichlari, ta'lim sifati va aholining savodxonlik darajasining ahamiyati, bunda O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarning egallagan o'rni, inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek, paragraf mazmunida 60110500- Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari tahlil qilinib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni yo'lga qo'yishning bugungi kundagi mavjud holatiga baho beriladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi amaldagi malaka talablariga: turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; kasbiy faoliyatda bola huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati; inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi kabi muhim malakaviy birliklar ya'ni kompetensiyalarning qo'shilishi, ularning o'quv rejasi va fan dasturlariga inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat va inklyuziv madaniyat mazmunini singdirishga xizmat qiladi. Natijada majburiy fanlar blokiga kirgan "Boshlang'ich ta'limda tarbiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Inklyuziv ta'lim.Gospital pedagogika" fanlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini yanada rivojlantirishga imkon berishi ta'kidlab o'tilgan.

Fikrimizcha, bugungi kunda asosiy muammolardan biri – ta'lim jarayoni ishtirokchilarning inklyuziv sinf maqsadlarini noto'g'ri talqin qilishlari bilan bog'liq. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham ko'pincha bunday sinflarning maqsadi, eng avvalo, ATEB bolalarga ta'lim dasturini o'zlashtirishga yordam berishdir, deb hisoblashadi. Ammo, aslida, asosiy maqsad ATEB bolalarning ijtimoiylashuviga, turli xil ijtimoiy rollarda o'zini to'liq namoyon etishiga yordam berishdir. Bunda eng muhimi bolaning sevimli mashg'ulotini topish, biror kasbga ega bo'lish, do'stlar, sevimli hobbiga ega bo'lish va hokazo. Shartli ravishda normal rivojlanayotgan

bolalarga nisbatan inklyuziya sharoitida maxsus maqsadlar belgilanmagan. Biroq, inklyuziv sinf an'anaviy sinfga qaraganda yuqori ta'lim salohiyatiga ega: bu empatiyani rivojlantirish, xatti-harakatlarning o'zini-o'zi boshqarishi, muloqot qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy tarbiyani o'z ichiga oladi. Va bu imkoniyatlardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonida albatta foydalanish kerak.

Bobning uchinchi paragrafida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishga doir milliy va horijiy tajribalar tahlili keltiriladi. Bunda pedagogika fanining asosiy metodologik asoslaridan biri bo'lmish islom dinida imkoniyati cheklangan insonlarga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash, Zardushtiylikning muqaddasi kitobi Avestoda bag'rikenglik, sabrlik, tenglik, adolat kabi qadriyatlar ildizi tahlil qilinadi. Shuningdek, Qadimgi Yunoniston, Rim, Vizantiya, Sharq faylasuflari va donishmandlari, jumladan Imom al-Buxoriy, Nizomul Mulk, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Amir Temur va boshqalarning asarlarida jamiyat va jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlar o'rtasidagi munosabat tahlil qilingan. Qadim zamonlardan beri olimu, ulamolar, faylasuflarni og'ir kasalliklarga chalingan yoki rivojlanishdan orqada qolgan kishilarning yashashi, ularni davolash va o'qitish masalalari o'ziga jalb etib kelgan. Aytish joizki, turli davrlarda nogironlarga g'amxo'rlik qilish, nogironlikning oldini olish va uni davolash muammolari har bir xalqning mentaliteti, o'sha davrning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha xususiyatga ega bo'lgan.


Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, AQSH va Yevropa davlatlari, Daniya, Shvetsiya va Norvegiya, Yaponiya, Rossiyada inklyuziv madaniyatning zamonaviy tendensiyalari va inklyuziv ta'limda faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarni tayyorlash tajribalari bayon etilgan. Yangi O'zbekiston tarixida inklyuziv ta'limning qisqacha rivojlanish xronologiyasini ko'rib, shunday xulosaga kelish mumkinki, keyingi paytlarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirish masalasiga keng e'tibor qaratilmoqda va sohada juda katta siljishlar kuzatilmoqda. Shuni ham aytib o'tish joizki, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bu uzoq muddatli strategiya hisoblanadi. Mazkur strategiyani ishlab chiqishda va amalga oshirishda albatta tizimli yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik jihatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirish mazmuni, inklyuziv madaniyatni namoyon bo'lish shart-sharoitlari tizimlashtirilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan pedagogik modeli ishlab chiqilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tarbiyaviy faoliyati eng birinchi navbatda kasbiy qadriyatlar va faoliyatning individual uslubini o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Mazkur pedagogik substansiya inklyuziv ta'limning turli bosqichlarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning imkoniyatlari va holatini hisobga olgan holda ularni muvaffaqiyatli rivojlantirish va jamoaga moslashishlariga imkon beruvchi, ta'lim samaradorligini kafolatlovchi zaruriy shart-sharoitlarni yarata

olish qobiliyatidir. Bunda shaxs proflikatsiyasi va ontogenezi uchun qulay muhit yarata masalasi muhim sanaladi.

Biznigcha inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida talabalik davridan boshlab shakllantirilishi, bunda quyidagi elementlarni shakllantirib borish muhim sanaladi (1-rasm):



Adabiyotlar tahlili hamda kuzatuvlar shaxsiy va kasbiy sifatlarning moslashuvchanligi, chidamlilik, muammolarni hal etishga tayyorlik, o‘ziga va o‘z faoliyati natijalariga ijobiy munosabatda bo‘lish kabi sifatlarga ega o‘qituvchilar inklyuziv sinflarda ko‘proq natijalarga erishishlarini ko‘rsatdi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyati mazmuni eng avvalo nogironlik kategoriyasini to‘g‘ri tushunish orqali shakllanadi. Nogironlik birinchi navbatda insonlarning xilma-xilligi va ularning huquqlari masalasidir. Nogironlikni faqat tibbiy yoki hayriya modeli emas, balki inson huquqlari modelini har bir jamiyat a‘zosi to‘la tushunishi va o‘z ongidagi imkoniyati cheklanganlarga bo‘lgan to‘siqlarni olib tashlashi lozim, fikrimizcha. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ongida nogironlik kategoriyasini to‘g‘ri shakllantirish orqali alohida ta‘lim ehtiyoji bor bolaga nisbatan ijobiy va professional pozitsiyasi shakllanadi.

Izlanishlarimiz davomida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatining tuzilishi quyidagi asosiy komponentlar jamlanmasidan iborat bo‘ladi degan xulosaga keldik: professional-motivatsion komponent–bo‘lajak mutaxassisning inklyuziv ta‘lim muhitida ishlashga, ta‘lim natijalarini kafolatlashga bo‘lgan tayyorligi bilan izohlanadi; professional-kognitiv komponent – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilishga doir kompetensiyalari to‘plami bo‘lib, bunda umumiy dunyoqarash, fanga doir


bilimlardan habardorlik darajasi, bola rivojlanishidagi psixologik va pedagogik qonuniyatlarni bilish, muammoli masalalarda bir qancha yechim yo'llaridan habardor bo'lishda ko'zga tashlanadi; professional-refleksiv (operatsion) komponent – ATEB bolalar, ularning ota-onalari yoki boshqa vasiylari, shuningdek inklyuziv ta'lim muhitida tahsil olayotgan boshqa sog'lom bolalar va ularning ota-onalari holatini, ularning kutilma va ehtiyojlarini ko'ra olish va ularga mos hatti-harakatlarni loyihalay olish, inklyuziv ta'lim muhitida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida oqilona va to'g'ri pedagogik xatti-harakatlarni, didaktik uslub va metodikalarni amalda qo'llay olish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni murakkab, uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, inklyuziv ta'lim muhitida ishlay oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlashda quyidagilarni hisobga olish lozim: inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda uzviylik va o'zaro aloqadorlik tamoyillariga rioya etish; boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi pedagogik turkum fanlar mazmuniga inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat, inklyuziv madaniyat elementlarini singdirish lozim; inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish; inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi yuqori kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilish; pedagog uchun alohida yordamga muhtoj bolalarga havfsiz inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga yordam beruvchi adabiyotlar, qo'llanmalar, tavsiya va dasturlarni ishlab chiqish lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mantiqiy bog'langan, bloklarga birlashtirilgan maqsadli, izchil, tizimlashtirilgan, mazmunga boy tarkibiy qismlar majmuasi bo'lib, uni tizimli-mazmunli model sifatida ko'rsatishga imkon beradi (3-rasm).

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Boshlang'ich ta'limda tarbiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Inklyuziv ta'lim.Gospital pedagogika" fanlari mazmunini inklyuziv, ijtimoiy-emotsional, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv materiallari bilan boyitish hamda yondosh mavzularni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga modifikatsion-adaptiv loyihalash natijasida mehnat bozoriga sifatli kadrlar yetkazib berish imkoniyatini oshiradi.

Mavzularni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga modifikatsion-adaptiv loyihalash – bu ta'lim mazmunidagi turdosh yoki qo'shimcha (yondosh) mavzularni ijtimoiy-emotsional, madaniyatlararo va inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyatga moslashtirish (modifikatsiya qilish) va shunga muvofiq yangilangan shaklda rejalashtirish (adaptiv loyihalash) jarayonidir. Ushbu yondashuv orqali mavzular tarbiyaviy kontekstda qayta talqin etiladi, turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega o'quvchilarning inklyuziv rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi hamda ularning jamiyatga ijtimoiy integratsiyasi va madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligi ta'minlanadi. Uni quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin (4-jadval).




3-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlarni inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga modifikatsion-adaptiv loyihalash

Fan nomi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar	Modifikatsion-adaptiv loyihalash obyekti	Kutilayotgan natija
Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya	Inklyuzivlik, empatiya, madaniyatlararo muloqot	Tarbiyaviy faoliyatga mos mavzularni tanlash va moslashtirish	Har xil ehtiyojdagi bolalar bilan ishlay oladigan pedagog kadr
Tarbiyaviy ishlar metodikasi	Ijtimoiy ong, emotsional boshqaruv, guruh bilan ishlash ko‘nikmalari	Tarbiyaviy metodikalarni moslashtirish va yangi loyihalar ishlab chiqish	Ijtimoiy jihatdan sezgir, mas‘uliyatli mutaxassis
Inklyuziv ta‘lim.Gospital pedagogika	Individual yondashuv, moslashtirish, psixopedagogik qo‘llab-quvvatlash	O‘quv materiallarini inklyuzivlik tamoyiliga asoslanib modifikatsiya qilish	Har xil ehtiyojli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassis

Bobning 2.3 paragrafida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonida qo‘llaniluvchi innovatsion texnologiyalari bayon etilgan bo‘lib, ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ta‘lim ehtiyoji mavjud o‘quvchilarning kommunikativ malakalarini shakllantirishga yordam berishi, o‘qituvchilar va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga, ularni jamiyatga integratsiyasini ta‘minlashga yordam berishi ta‘kidlanadi. Ushbu paragrafda OTMda auditoriya va auditoridan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini rivojlantiruvchi metodlar sanab o‘tilgan. Xususan: Socratic seminar, Philosophical chair metodlari, ijtimoiy-psixologik trening, individual va differensial o‘qitish, ijtimoiy-hissiy vaziyatlarni modellashtirish, PBL-5 metodlari (muammoga, loyihaga, ishlab chiqarishga, jarayonga, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim), 4“K”kompetensiyani rivojlantiruvchi metodlar (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, kooperatsiya yani jamoa bo‘lib ishlash qobiliyati), keysli mashg‘ulotlar loyihalarini ta‘limiy mazmunga mos ravishda mustaqil vizuallashtirishning imkoniyatlari ochib berilgan, har bir metodika yuzasidan auditoriyada qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar, vaziyatli mashqlar va ishlanmalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat (5-rasm).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samaradorligi”** deb nomlanadi. Ushbu bobda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni hamda olib borilgan eksperiment ishlarining tahlili keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari 2021-2024 yillar davomida amalga oshirilgan. Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:



5-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari

Ta'kidlash bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq mavjud vaziyatni aniqlash uchun

pedagogik tadbirlar tashkil etildi. Buning uchun Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatini birlamchi baholash jarayonida kuzatish, so'rovnoma, anketa kabi metodlardan foydalanildi. Bularning hammasi ma'lum darajada tadqiqotning asosiy yo'nalishi va dasturini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha yetakchi olim va o'qituvchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

